



Xalqaro jinoyatlar va ular uchun javobgarlik

Muhammadiyeva Sevinch Nurbek qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Xususiy huquq fakulteti 2-bosqich talabasi

muhammadiyevasevinch051@gmail.com

Annotatsiya: Xalqaro jinoyat huquq sohasi chuqur tarixiy ildizlariga ega bo'lib, davlat va huquqning vujudga kelish davri bilan o'zaro chambarchas bog'liqligini e'tirof etish zarur. Hozirgi kunda xalqaro jinoyat huquqi doirasida xalqaro xarakterdagi jinoyatlar nazariyasi va amaliyoti shakllanib, mazkur jinoiy qilmishlar ayrim davlatlar yoki barcha davlatlarning mamfaatlari daxl qilmoqda. Bu omillar natijasida xalqaro miqyosda xavf vujudga kelmoqda. Shuning uchun aniqlangan bunday holatlar davlatlar o'rtasida shartnoma bo'yicha xalqaro tUSDagi jinoyatlar deb hisoblanadi, ko'p tomonlama tegishli xalqaro huquqiy baho beriladi. Glaballashuv va integratsiyalashuvlar natijasida dunyoda xalqaro va transmilliy jinoyatlar soni oshib bormoqda. Bularga qarshi kurashish uchun ko'pgina davlatlar birlashib, oldini olish yo'llarini izlashyotganligi, shuningdek, bu borada BMTning huquq ijodkorligi faoliyati natijalari ham ushbu masalaning dolzarbligidan dalolat beradi.

Kalit so'zlar: xalqaro jinoyat huquqi, xalqaro jinoyatlar, terrorizm, javobgarlik asoslari, tinchlikka qarshi jinoyatlar, insoniyatga qarshi jinoyatlar, har bir jinoyatlar.



Asosiy qism:

Xalqaro jinoyat bu insoniyat uchun xavfli bo'lgan, shaxsni himoyalash, xalqaro hamjamiyatning muhim hayotiy manfaatlari, tinchlikni saqlash uchun asosiy ahamiyatga ega bo'lgan xalqaro huquq norma va prinsiplarining buzilishiga aytiladi.¹

Xalqaro jinoyat turlari ko'p bo'lib, biz asosan Xalqaro jinoyat sudining Rim statutida keltirib o'tilgan quyidagi nomlar bilan xalqaro jinoyatlar turlari belgilangan. Bular:

1. Tinchlikka qarshi jinoyatlar (agressiya)
2. Insoniyatga qarshi jinoyatlar (genotsid, aparteid, biotsid, yadroviy moddalarni o'g'irlash kabilar);
3. Harbiy jinoyatlar (urush qoidalari va odatlarni buzish, yollanmachilik);
4. Xalqaro xarakterdagi jinoyatlar (xalqaro terrorizm, qulchilik, giyohvandlik, odam savdosi, qiynoq, pullarni qalbakilashtirish, jinoiy daromadlarni legallashtirish, korrupsiya, uyushgan jinoyatchilik, ekologik jinoyatlar, madaniy boyliklarni yo'q qilish kabilar).

Tinchlikka qarshi jinoyatlar

Tinchlikka qarshi jinoyatlar bu agressiv urushlarni olib borish, keltirib chiqarish, tayyorlash, rejalashtirish, yoki xalqaro shartnomalarni, bitimlarni, kelishuvlarni buzgan holda urush olib borish yoki umumiy rejada yoxud fitnada ishtirok etishdir.

Agressiyaga ta'rif BMT Bosh Assambleyasining 1974-yilgi 3314(XXIX) sonli rezolutsiyasida o'z aksini topgan bo'lib, quyidagicha ta'riflangan:

Agressiya – bu odamlar, odamlar guruhiga nisbatan jismoniy va ruhiy zarar yetkazishga qaratilgan individual yoki jamoaviy xatti-harakatlar majmui hisoblanadi.

¹ Xalqaro ommaviy huquq: darslik/ A.X.Saidov va boshqalar.-T:TDYU nashriyoti,2023, -499 b.



Bugun insoniyat tarixi ishonchli tarzda shuni isbotlamoqdaki, agressiya shaxs va jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda.

Insoniyatga qarshi jinoyatlar

Insoniyatga qarshi jinoyatlar. Ular sirasiga: o'ldirish, qirg'in qilish, asoratga solish va aholiga nisbatan qo'llaniladigan shu kabi boshqa shafqatsizliklar, ya'ni siyosiy, irqiy yoxud diniy sabablar bo'yicha targ'ib etish hollari kiradi. Bu ro'yxat Ruanda va sobiq Yugoslaviya uchun tribunallarning Nizomlariga asosan qiynoq, nomusga tegish, shuningdek, terrorizmning kiritilishi hisobiga yanada kengaydi. Insoniyatga qarshi jinoyatlar va harbiy jinoyatlarga uzoqlik muddatini qo'llamaslik to'g'risida 1986-yilgi Konvensiyada insoniyatga qarshi jinoyatlar birinchi marta xalqaro jinoyatlarning alohida guruhi sifatida ajratilgan edi. Aparteid jinoyatlarining oldini olish va u uchun jazolash to'g'risidagi 1973-yilgi Konvensiyada aparteidga o'xshash irqiy segregatsiya va irqiy kamsitish ham jinoyat deb baholanadi. 1976-yili BMTning Xalqaro huquq Komissiyasi Davlatlarning javobgarligi to'g'risidagi Moddalar loyihasini ma'qulladi, unga ko'ra, genotsid, qulchilik va kolonial hukmronlik ham insoniyatga qarshi jinoyatlar qatoriga kiritildi. Yuqoridagilarga asosan, aytish mumkinki, xalqaro huquqning rivojlanishi bilan ko'rib chiqilgan jinoyatlarning soni ham oshib boradi. Bunga 1991-yili Xalqaro huquq Komissiyasi tomonidan qabul qilingan Tinchlik va insoniyat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar Kodeksi loyihasi misol bo'ladi. Shuningdek, insoniyatga qarshi jinoyatlar qatoriga qurolli hujum va okkupatsiya natijasida aholini haydab chiqarish, aparteid, genotsid siyosatini olib borish oqibatida kelib chiqadigan noinsoniy harakatlar keltirilgan. Shuningdek, irqiy segregatsiya va irqiy kamsitish ham jinoyat deb baholanadi. (Insoniyatga qarshi jinoyatlarga birma-bir ta'rif verib o'tsak:

Okkupatsiya, harbiy okkupatsiya (lotincha: occupatio – egallash, bosib olish) – xalqaro huquqda urush olib borayotgan tomonning qurolli kuchlarining dushman hududini



vaqtincha egallab olishi.)Ushbu Nizom maqsadlari uchun **"genotsid"** quyidagi harakatlardan birini anglatadi:

har qanday fuqaroni to'liq yoki qisman yo'q qilish niyatida sodir etilgan milliy, etnik, irqiy yoki diniy guruh hisoblanadi. Genotsid tarjimasi – (urug', qabilalarni o'ldirish, qirg'in qilish) irqiy, milliy, etnik yoki diniy belgilariga asosan butun bir aholini jismonan yo'q qilishni bildiradi. "Har qanday milliy, irqiy, etnik yoki diniy guruhlarini qisman yoki to'liq yo'q qilish niyatida amalga oshiriladigan harakatlar genotsid deb tushuniladi". Genotsidga misol qilib, Germaniya, Chili, Janubiy Afrika mamlakatlarini keltirishimiz mumkin.

Aparteid, apartxeyd (afrikaans tilida apartheid — „alohida-alohida yashash“) — irqiy kamsitishning eng ashaddiy ko'rinishi. Muayyan aholi guruhlarining ular irqiy mansubligiga qarab, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va fuqarolik huquqlaridan mahrum etishni, hududiy jihatdan yakka-latib qo'yishgacha borishni anglatadi. Shuningdek, 1973-yilda BMT Bosh Assambleyasi Aparteid jinoyatining oldini olish va buning uchun jazolash to'g'risida konvensiya qabul qilindi va bunda apartheid xalqaro tinchlik va xavfsizlikka tahdid soluvchi, xalqaro huquqqa, insoniyatga qarshi qaratilgan jinoyat deb topildi. Bu jinoyat subyektlarini, qayerda sodir etilganidan, shuningdek, qanday asosga ko'ra sodir etilganiga qaramasdan, davlat vakillari, tashkilotlar, tashkilot a'zolari va jismoniy shaxslar tashkil etadi. Shuningdek, apartheid aktlarini qo'llashda hamkorlik qilgan yoki qo'llab-quvvatlaganlar ham javobgar bo'ladi.²

Keyingi jinoyat turi bu Biotsid hisoblanib, uning tarjimasi hayotni tugatish degan ma'noni anglatadi. Uning asosiy jihati shundaki, u faqat insoniyatga qarshi qaratilgan bo'ladi. Biotsidning asosiy manbai agressiv urush va qurolli to'qnashuvlar hisoblanadi. Uning o'ziga xos xususiyati shundaki, tinchlik bo'lgan vaqtda biotsid amalga oshirilmaydi.

² Xalqaro ommaviy huquq: darslik/ A.X.Saidov va boshqalar.-T:TDYU nashriyoti,2023, -503 b



Biotsid asosan, harbiy ustunlikka erishish uchun ommaviy qirg'in qurollar yordamida biosferani, ya'ni tirik organizmlarni maqsadli ravishda yo'q qilishni anglatadi.

Insoniyatga qarshi jinoyatlar deb, quyida keltirilgan qilmishlar yirik miqyosda sodir etilgan bo'lsa, har qanday tinch aholiga qarshi tizimli hujumlar hidoblanadi:

1. qotillik;
2. yo'q qilish;
3. qullik;
4. deportatsiya yoki aholini majburiy ko'chirish;
5. qamoq yoki boshqa og'ir jismoniy ozodlikdan mahrum qilish xalqaro huquqning asosiy normalarini buzish;
6. Qiynoqlar

Bu jinoyatlarga quyidagicha ta'rif berib o'tilgan:

1. **"har qanday tinch aholiga hujum qilish"** xatti-harakat kursini, shu jumladan har qanday fuqarolarga nisbatan 1-bandda ko'rsatilgan qilmishlarning takroran sodir etilishini kutish davlat yoki tashkilot siyosatini amalga oshirish maqsadida amalga oshirilgan fuqarolik shaxslari; bunday hujumni amalga oshirishga yoki bunday siyosatni davom ettirishga qaratilgan;
2. **"qirg'in qilish"**, xususan, yashash sharoitlarini ataylab yaratishni o'z ichiga oladi aholining bir qismini yo'q qilish uchun hisoblangan oziq-ovqat va dori-darmonlardan foydalanishdan mahrum qilish;
3. **Qullik** — ekspluatatsiyaning tarixan dastlabki va eng qo'pol shakli, unda qul ishlab chiqarish qurollari qatorida, o'z xo'jayini quldorning mulki hisoblangan.
4. "aholini deportatsiya qilish yoki majburan ko'chirish" deganda kuch tushuniladi quvilgan yoki boshqa majburiy harakatlarga duchor bo'lgan shaxslarni jismoniy ko'chirish uchun



ruxsat etilgan asoslar bo'lmasa, ular qonuniy yashayotgan hududdan xalqaro huquq normalariga zid holatda ko'chiriladi.

5. **"qiynoqqa solish"** qamoqdagi yoki qamoqdagi shaxsga qasddan qattiq og'riq yoki azob, jismoniy yoki ruhiy azob berishni anglatadi.

6. **"quvg'in"** - asosiy huquqlardan qasddan va jiddiy mahrum etishni anglatadi.

7. **"shaxslarni majburan yo'q qilish"** hibsga olish, hibsga olish yoki surgun qilishni anglatadi.

Harbiy jinoyatlar

Harbiy jinoyatlarga keladigan bo'lsak, bular urushlarning qonunlari va odatlarini quyidagicha buzganda sodir bo'ladi: bosib olingan hududdagi aholini o'ldirish, qiynoqqa solish; garovga olinganlarni o'ldirish, umumiy yoki xususiy mulkni talash; harbiy zarurat bo'lmagan holda shahar va qishloqlarni hech qanday sababsiz vayron qilish va boshqa shu kabi jinoyatlar kiradi. Harbiy jinoyatlar va insoniyatga qarshi jinoyatlarning ro'yxati 1949-yilgi urush qurbonlarini himoya qilish to'g'risidagi Jeneva konvensiyasi va 1977-yilgi I protokolga qo'shimcha qilib to'ldirilgan va ular "jiddiy huquqbuzarlik" deb tasniflangan.

1. qasddan qotillik;
2. qiynoqlar va g'ayriinsoniy muomala, shu jumladan biologik tajribalar;
3. qasddan og'ir azob-uqubat yoki tanaga yoki sog'likka jiddiy shikast yetkazish;
4. noqonuniy, g'ayritabiiy va keng ko'lamli qirg'in va harbiy zaruriyatdan kelib chiqmagan mol-mulkni o'zlashtirish;
5. harbiy asirni yoki boshqa himoyalangan shaxsni dushman kuchlarining qurolli kuchlarida bo'lishga majbur qilish;
6. garovga olish



7. to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita bo'linmani egallash kuchi bilan o'tkazish o'zining tinch aholisini o'zi bosib olgan hududga yoki bosib olingan hudud yoki uning ayrim qismlari aholisini deportatsiya qilish yoki ko'chirish ushbu hudud ichida yoki undan tashqarida;
8. diniy, ta'lim, san'at, fan yoki xayriya, tarixiy maqsadlar uchun mo'ljallangan binolarni ataylab nishonga olish;
9. zaharli yoki zaharlangan qurollardan foydalanish;
10. bo'g'uvchi, zaharli yoki boshqa gazlar va har qanday suyuqliklar, materiallar yoki vositalardan foydalanish;
11. inson qadr-qimmatiga tajovuz, xususan, haqorat qiluvchi va kamsituvchi munosabat;
12. qasddan binolarni, materiallarni, tibbiy muassasalarni va transport vositalarini, shuningdek, xalqaro huquqqa muvofiq, Jeneva tomonidan o'rnatilgan farqlovchi timsollardan foydalangan holda xodimlarni nishonga olish va boshqa shu turdagi jinoyatlar harbiy jinoyatlar deb hisoblanadi.

Keyingi qismda **Xalqaro xarakterdagi jinoyatlar haqida so'z boradi**. Xususan, Xalqaro terrorizm, ma'nosi shuki, lotinchada "terror" so'zidan olingan bo'lib, sarosimaga solish, daxshat degan ma'nolarni beradi. Bu so'z etimologiyasi albatta Fransiya inqilobi vakillariga nisbatan kelib chiqqan. Boshqa bir etimologiyaga ko'ra, "terrorizm" fransuz tilidan olingan; lotin tilidan: terror, "katta qo'rquv", "qo'rquv", lotin fe'li bilan bog'liq "terrere" ya'ni "qo'rqitish" ma'nosini beradi. Atama ma'nosi barcha tillarda "qo'rquv", "daxshat"ni anglatadi.³ Terrorizm ijtimoiy xavfli qilmish bo'lib, begunoh insonlarning

³ Akbarovich, Ramazonov Amir. "XALQARO TERRORIZM XALQARO JINOYAT SIFATIDA." INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION 3.28 (2024): 369-379.



o'limiga sabab bo'ladi. U shuningdek, diplomatic munosabatlarning buzilishiga ham olib keladi. Terrorizmning yana bir ta'rifi bo'lib, unda bu atama quyidagicha keltirilgan:

Siyosiy raqiblarni, muxoliflarni yo'qotish yoki qo'rqitish, aholi o'rtasida vahima va tartibsizliklar keltirib chiqarish maqsadidagi zo'ravonlik harakatlari hisoblanadi deyilgan. Demak, bundan xulosa qilish mumkinki, Terrorizm asosan begunoh insonlarning o'limi bilan yakunlanadi, shuningdek yuqorida aytib o'tganimdek, davlatlar o'rtasidagi diplomotik yoki boshqa aloqalarga ham salbiy ta'sir o'tkazadi, xalqaro uchrashuv va aloqalarni amalga oshirishni qiyinlashtiradi, shuningdek davlatlar o'rtasidagi transport aloqalarini izdan chiqaradi. Terrorizm haqida Uolter Laker quyidagicha ta'rif bergan. "Terrorizm-bu jamiyatni vahimaga solish maqsadida va shu asosda davlatni kuchsizlantirish, hatto mansabdor shaxslarni o'ldirish, jamiyatda siyosiy o'zgartirishlar qilish uchun nodavlat tashkilotlar tomonidan zo'rlikni qo'llash yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitishdir".⁴

Qulchilik, shuningdek qul savdosi va odam savdosining boshqa shakllari. Qulchilikni ta'qiqlash bo'yicha ilk marotoba 1815-yilda Vena kongressida ko'rib chiqilgan va keyin qullar bilan savdo qilishni ta'qiqlash bo'yicha deklaratsiya qabul qilingan.

Keyingi xalqaro jinoyat giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarini noqonuniy ishlab chiqarish hamda tarqatish hisoblanib, uning ma'nosi quyidagicha keltirilgan. Dunyoda ko'pgina giyohvandlikka qarshi choralar va kurashlar olib borilayotganligini guvohi bo'lmoqdamiz. Bu kabi harakatlarning asosiy sababi, jamiyatdagi hayot tarzi va dunyodagi ko'pgina davlatlarda giyohvandlik vositalarini tarqatish bilan shug'ullanayotgan tashkilotlarning ko'payib ketayotganligi asosiy sabab hisoblanadi. 1961-yilda qabul qilingan Giyohvandlik vositalari to'g'risidagi konvensiya qabul qilingan bo'lib, uning asosiy maqsadi shundan iboratki, ya'ni har bir davlat o'z hududidagi narkotik moddalarni tayyorlanishi va tarqatish ustidan nazoratni amalga oshirishini nazarda tutadi.

⁴ Кажушко Е. Современный терроризм. Анализ основных направлений. – Минск., 2000. –



Xalqaro jinoyatlar uchun javobgarlik asoslari

Bunda davlatlarni xalqaro jinoyatlarni keltirib chiqaradigan, jinoyat siyosatini amalga tatbiq etadigan mansabdor shaxslarning qilmishi katta xavf keltirib chiqaradi, xalqaro siyosiy moddiy javobgarlikni keltirib chiqaruvchi davlatlarning jinoyatlarini davlatlarning rahbarlari, oliy mansabdor shaxslar va jinoiy siyosatning boshqa ishtirokchilari ham javobgar bo'ladilar.⁵ Shuningdek, tayyorgarlik ko'rishda, fortifikatsion inshootlarni qurishda ishtirok etgan Germaniya va Yaponiya mansabdor shaxslarni javobgarlikka tortilganini misol qilib olishimiz mumkin. Umumiy rejada va fitnada ishtirok etish tushunchasi davlatlarni turli shakllarda ishtirokini bildiradi. Ularning barchasi to'liq javobgarlikka tortilishi lozim.⁶ Insoniyatga qarshi jinoyatlar va boshqa jinoyatlarga jazoning muqarrarligini ta'minlash uchun xalqaro jinoyat huquqi normalarini qidiruv, qamoq va jinoyatchilarni berish qoidalarini tartibga solib turadi. 1946-yildayoq BMT Bosh Assambleyasi o'zining maxsus rezolyutsiyasida davlatlarga "harbiy jinoyatchilarni qayerda jinoyat sodir etgan bo'lsa, o'sha davlatlarga ularni jo'natib, o'sha davlat qonunlari asosida ularni javobgarlikka tortish uchun barcha barcha choralarni ko'rish kerakligi haqida" tavsiyalar bergan edi. BMTning inson huquqlari bo'yicha Komissiyasi o'zining 29-sessiyasida insoniyatga qarshi va harbiy jinoyatlarda aybdor bo'lgan shaxslarni aniqlash, qamash va ularni ushlab jazoga tortish bo'yicha xalqaro hamkorlikning prinsiplari loyihasini ko'rib chiqdi va ma'qulladi.⁷

Aparteid jinoyati 1973-yil BMT ning Bosh Assambleyasining aparteid jinoyatining oldini olish va uni jazolash to'g'risidagi Konvensiyasini qabul qiladi, unga ko'ra aparteid

⁵ Егоров С.А. Вооруженный конфликт: право, политика, дипломатия. – М., 1989. – С. 78.

⁶ Очилов Б.Э., Одилқориев Х.Т. Ҳозирги замон халқаро оммавий ҳуқуқи: Дарслик. Қайта ишланган ва тўлдирилган нашр. Лотин алифбосида. – Тошкент: Алишер Навоӣ номли Ўзбекистон миллий кутубхонасининг нашриёти; Тошкент давлат юридик институти, 2007. – 344 б.

⁷ Очилов Б.Э., Одилқориев Х.Т. Ҳозирги замон халқаро оммавий ҳуқуқи: Дарслик. Қайта ишланган ва тўлдирилган нашр. Лотин алифбосида. – Тошкент: Алишер Навоӣ номли Ўзбекистон миллий кутубхонасининг нашриёти; Тошкент давлат юридик институти, 2007. – 345 б.



xalqaro tinchlik va xavfsizlikka tahdid soluvchi, xalqaro huquqqa, insoniyatga qarshi qaratilgan jinoyat deb ataladi.

Biotsid – bu qurollar kimyoviy qurollarni yaratish, ishlab chiqarish, to'plash va qo'llashni ta'qiqlash va ularni yo'q qilish to'g'risidagi konvensiya bilan ta'qiqlangan. 1993-yili bu konvensiyani Parijda 154 ta davlat imzoladi. Hozirgacha amalda bo'lgan 1956-yil 7-sentyabrdagi “Qulchilikni, qul savdosini va qulchilikka o'xshash institut va odatlarni tugatish to'g'risida”gi qo'shimcha Konvensiya qabul qildi. Bu konvensiya biror kishini qulga aylantirmoqchi bo'lgan shaxslar, qullar tashish bilan shug'ullanuvchi shaxslar, qulga aylantirish uchun kishilarni turli qiynoqlarga soluvchi kishilar, o'zlarini qul qilib sotishga majbur qiluvchilarning jazoga tortilishini nazarda tutadi.⁸

1937-yili 24 davlat vakillari “Terrorizmning oldini olish va uni tugatish to'g'risida”gi konvensiya hamda terrorchilar va boshqa jinoyatchilarni sud qilish uchun “Xalqaro jinoyat palatasi to'g'risida”gi Konvensiyaga imzo qo'ydilar. Konvensiyada terrorchilikda ayblangan shaxslarni jazolash tartibi belgilangan.⁹

Xulosa. Xulosa shuki, har qanday jinoyat uchun belgilangan javobgarlik chorasi mavjud bo'lib, bunday choralar belgilangan tartibda qabul qilingan Konvensiyalar tomonidan tartibga solinadi. Rim statusida belgilangan xalqaro miqyosida tan olingan xalqaro jinoyatlar ro'yxati keltirilgan bo'lib, bular xalqaro jinoyatlarni tartibga solishda asosiy manba sifatida foydalaniladi. Xalqaro jinoyatlar va ularni jazolash mexanizmlari xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Bunday jinoyatlarni oldini olish va ularni jazolash orqali global miqyosda adolatni tiklash maqsad qilinadi.

⁸ Ст.ст. 5-6, 17 Дополнительной конвенции об упразднении рабства, работорговли и институтов, обычаев, сходных с рабством от 7 сентября 1956 г.

⁹ Очиллов Б.Э., Одилқориев Х.Т. Ҳозирги замон халқаро оммавий ҳуқуқи: Дарслик. Қайта ишланган ва тўлдирилган нашр. Латин алифбосида. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонасининг нашриёти; Тошкент давлат юридик институти, 2007. – 354 б.